

01/24/015 - sonli

**“AVTOKREDIT-YURIDIK” KREDIT TAVAKKALCHILIGI HAMDA TRANSPORT
VOSITASINI SUG‘URTALASH BOSH SHARTNOMASI**

Toshkent shahri

“03”- 07 2025-yil

O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta faoliyatini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan 2022 yil 24 fevralda berilgan SF 00037-sonli litsenziya asosida faoliyat yurituvchi “**MY INSURANCE**” AJ, keyingi o‘rinlarda “**Sug‘urtalovchi**” deb nomlanuvchi, Ustav asosida faoliyat yurituvchi Bosh direktor A.K. Yuldashev bir tomondan shuningdek, AT “**ALOQABANK**” keyingi o‘rinlarda “**Naf oluvchi**” deb nomlanuvchi, Ustav asosida ish yurituvchi Boshqaruv Raisi K.N. Irisbekova ikkinchi tomonidan bирgalikda “**Tomonlar**”, alohida hollarda “**Tomon**” deb yuritiladi, ushbu “Avtokredit-yuridik” kredit tavakkalchiligi hamda transport vositasini sug‘urtalash Bosh shartnomasini (keyingi o‘rinlarda “**Shartnoma**” deb yuritiladi) quyidagi shartlar bo‘yicha tuzdilar:

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur Shartnomada nazarda tutilgan shartlar va/yoki qo‘srimcha kelishilgan shartlar, ushbu Sug‘urta shartnomasining ajralmas qismi bo‘lgan istisnolar va ilovalarga muvofiq sug‘urta tovonini/ta’minotini amalga oshirish majburiyatini oлган holda Qarz oluvchining kreditni qoplamaslik tavakkalchiligi hamda transport vositasini sug‘urtasi mazkur Shartnomaning predmeti bo‘lib, Sug‘urta qildiruvchi sug‘urta mukofotini mazkur Shartnomada belgilangan miqdor va shartlarda to‘laganda, Sug‘urtalovchi Shartnomada keltirilgan sug‘urta hodisasi ro‘y berganda Sug‘urta qildiruvchiga, Naf oluvchiga sug‘urta tovonini mazkur Shartnomada belgilangan tartibda va hajmda qoplashni o‘z zimmasiga oladi.

1.2. Shartnomada ko‘rsatilgan mulkka (sug‘urta predmetiga) egalik qilish, undan foydalanish, uni tasarruf etish bilan bog‘liq bo‘lgan Naf oluvchining ushbu Shartnomada nazarda tutilgan sug‘urta hodisasi yuz berganda uning yo‘qotilishi (nobud bo‘lishi) yoki shikastlanishi oqibatida Naf oluvchining mulkiy manfaatlari mazkur Shartnomaning sug‘urta ob‘ekti hisoblanadi.

1.3. Sug‘urta qildiruvchi mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq ishlab chiqilgan ommaviy oferta shaklidagi shartnoma (1-ilova) bilan tanishib rozilik bildirganligini asoslovchi ariza-anketani (2-ilova) to‘ldirish orqali shartnoma tuzadi.

2. ASOSIY TUSHUNCHALAR

Shartnomada qo‘llanilgan asosiy tushunchalar quyidagi ma’nolarga ega:

Kredit shartnomasi – Ariza-anketada ko‘rsatilgan Naf oluvchi va Qarz oluvchi o‘rtasida kredit berish shartlarini belgilaydigan fuqarolik-huquqiy shartnomasi.

Qarz oluvchi – Kredit shartnomasi bo‘yicha Naf oluvchi bilan munosabatlarga kirishuvchi, grafik bo‘yicha har oy asosiy qarz va ular bo‘yicha hisoblangan foizlarni to‘lash uchun yetarlicha daromadga ega bo‘lgan yuridik shaxs.

Sug‘urta summasi – Shartnoma shartlariga ko‘ra sug‘urta hodisasi yuz berganda Sug‘urtalovchining Qarz oluvchi va/yoki Sug‘urta qildiruvchi/Naf oluvchi oldidagi majburiyatlari hajmini ifodalovchi pul miqdori.

Sug‘urta qiymati – ob‘ektning haqiqiy qiymati.

Sug‘urta tovoni – sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda sug‘urta summasi doirasida yetkazilgan zararni qoplash uchun to‘lanadigan pul.

Sug‘urta mukofoti – mazkur Shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda Sug‘urta qildiruvchi tomonidan Sug‘urtalovchiga to‘lanishi shart bo‘lgan sug‘urta to‘lovi.

Sug‘urta muddati – muayyan Qarz oluvchiga nisbatan Sug‘urtalovchining sug‘urta tovonini to‘lash majburiyati amal qiladigan vaqt davri.

Sug‘urtalangan transport vositasi (TV) – kredit mablag‘lari hisobiga sotib olingan, sug‘urta tadbiq etiladigan hamda sug‘urta polisida ko‘rsatilgan Qarz oluvchi nomiga hujjatlashtirilgan, belgilangan tartibda garovga qo‘yilgan transport vositasi (jumladan, O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan yengil va yuk avtomobillar, xorijiy ishlab chiqaruvchilarning yengil va yuk avtomobilari/elektromobil, maxsus texnikalar, avtobus va mikroavtobuslar, elektrobuslar yuk ko‘tarish mashina va mexanizmlari).

Haydovchi – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda sug‘urtalangan transport vositasini hamda tegishli toifadagi transport vositasini boshqarish huquqiga, belgilangan namunadagi haydovchilik guvohnomasiga ega bo‘lgan va sug‘urtalangan transport vositasini qonuniy ravishda boshqaradigan jismoni shaxs.

Sug‘urta hodisasi to‘g‘risidagi qaror – voqealari sug‘urta hodisasi deb e’tirof etilganidan so‘ng Sug‘urtalovchi tomonidan tuziladigan va sug‘urta tovonini to‘lash uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi hujjat.

Ommaviy oferta shaklidagi ariza (ariza-anketa) – Sug‘urta qildiruvchi/Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan sug‘urta ob‘ekti, Kredit shartnomasi hamda Sug‘urta qildiruvchi/Qarz oluvchi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bo‘lib, ushbu ma’lumotlar Sug‘urtalovchi tomonidan qabul qilingandan va sug‘urta mukofoti to‘langandan so‘ng aniq bir Sug‘urta qildiruvchi/Qarz oluvchiga beriladigan sug‘urta polisining ajralmas qismi bo‘lgan hujjat;

JFODLTMVOQQTM - jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish;



3. SUG'URTA HODISALARI

3.1. Sug'urta muddati davomida quydagilar sodir bo'lsa sug'urta hodisasi hisoblanadi:

3.1.1. Sug'urta davri mobaynida quyida keltirilgan sabablarga ko'ra yuz bergan va Bankka o'z vaqtida to'lovlarni amalga oshirish majburiyatlarining buzilishiga sabab bo'lgan hodisalar:

a) Kredit shartnomasi bo'yicha to'lovlardan jadvalida ko'rsatilgan to'lovlarni belgilangan muddatdan kechiktirish va summani 90 (to'qson) kalendar kundan ortiq muddatga kechiktirib to'lash (to'lamaslik);

b) Kredit shartnomasi bo'yicha to'lovlardan jadvalida ko'rsatilgan to'lovlarni belgilangan muddatdan kechiktirish va Sug'urtalovchi tomonidan birinchi sug'urta hodisasi bo'yicha sug'urta tovoni to'langandan keyin summani 90 (to'qson) kalendar kundan ortiq muddatga kechiktirish (bu davrga birinchi sug'urta hodisasida hisobga olinadigan 90 (to'qson) kunlik davr qo'shilmaydi). Bunda, kredit "qoniqarsiz" deb e'tirof etiladi;

d) Qarz oluvchining bankrotligi yoki to'lovga layoqatsizligi.

3.1.2. Quyidagilar oqibatida sug'urtalangan transport vositasining yo'qolishi yoki zararlanishi (shikastlanishi):

- yong'in, portlash, chaqmoq urishi;

- toshqin, dovul, bo'ron, do'l, sel;

- tabiiy ofatlar: zilzila, qor ko'chkisi, yer cho'kishi, yorilishi va boshqa holatlar;

- yo'l-transport hodisasi;

- yod jismarning qulashi;

- Texnogen tusdagi favqulodda xodisalar;

- uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari (talonchilik, o'g'irlik, hujum, olib ochish va boshqalar);

- Shuningdek, har qanday turdag'i transport vositasining yo'qolishi yoki zararlanishi (shikastlanishi)ga olib keladigan tabiat hodisalar.

3.2. Mazkur Shartnomaning 3.1-bandining "a" kichik bandida nazarda tutilgan sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash bo'yicha majburiyatlar kredit qaytmashlik xataridan sug'urta davri kredit hisobiga sotib olinadigan avtomashinaga ta'qiq qo'yilgunga qadar amal qiladi.

3.3. Shartnomaning 3.1-bandi "b" kichik bandida nazarda tutilgan sug'urta hodisalar bo'yicha Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash majburiyatlar kredit hisobiga sotib olinadigan avtomashina garovga qo'yilgan vaqtidan boshlanib, sug'urta polisida ko'rsatilgan muddatda tugaydi.

3.4. Mazkur Shartnomaga muvofiq quydagi hollarda sug'urta hodisasi tan olinmaydi va Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lashdan ozod qilinadi:

a) Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi yoki Qarz oluvchi sug'urta hodisasi yuz berganligi to'g'risidagi hujjatlarni Sug'urtalovchiga taqdim etmaganligi sababli qaror qabul qilishning iloji bo'Imaganda;

b) Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi Sug'urtalovchini sug'urta hodisasining sabablari va holatlarini aniqlashda, shuningdek zarar miqdorini belgilashda ishtirok etishiga to'sqinlik qilganda;

d) qonun hujjatlarda belgilangan tartibda texnik ko'rnikdan o'tmagan sug'urtalangan transport vositasidan foydalanish (eksploatatsiya) (shuningdek, qonunchilikda belgilangan tartibda sertifikatsiyadan o'tmagan gaz ballon uskunasi o'rnatilgan sug'urtalangan transport vositasidan foydalanish (ushbu istisno ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan gaz ballon uskunasi o'rnatilgan transport vositalariga taalluqli emas).

e) Qarz oluvchi/Haydovchi tomonidan sug'urtalangan transport vositasini mast holatda (alkogol, giyohvandlik vositalari va boshqalar) boshqarishi oqibatida;

f) temir yo'l kesishmalarini kesib o'tish, taqiqlovchi svetofor belgisidan o'tish yoki belgilangan yo'nalishga qarshi harakatlanish qoidalarini buzish, belgilangan harakat tezligini oshirish;

g) transport vositasida yonuvchi, portlovchi va boshqa moddalarni tashish qoidalarini buzishi natijasida sodir bo'lgan hodisalardan;

h) ijara, tekinga foydalanish va qayta garovga qo'yishda sug'urtalovchining yozma roziligi olinmaganda.

3.5. Shartnomada sug'urtalangan transport vositasiga quydagi sabablarga ko'ra to'liq yoki qisman yetkazilgan zarar qoplamaydi:

a) harbiy bosqinchilik harakati, harbiy harakatlar yoki urushga o'xshash harakatlar (urush e'lon qilingan yoki e'lon qilinmaganligidan qat'i nazar), fuqarolar urushi;

b) qo'zg'olon, ommaviy tartibsizliklar, milliy xarakterdag'i ish tashlashlar;

d) shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan sodir etilgan terrorchilik harakati;

3.6. Sug'urta hodisasi natijasida sug'urtalangan transport vositasiga yetkazilgan zarar miqdoridan sug'urta tovoni miqdorini belgilashda quydagilar istisno etiladi:

a) transport vositasining tabiiy eskirishi shu jumladan uning alohida qismlari va agregatlarining ishlashi va/yoki ishlamay turishi qoplanmaydi biroq tabiiy eskirishi oqibatida transport vositasining shikastlanishi yoki nobud bo'lishi asoslar keltirilganda mazkur Shartnomada bo'yicha qoplanadi;

b) sug'urtalangan transport vositasini zavod-ishlab chiqaruvchi nuqsonlari;

d) sug'urtalangan transport vositasini takomillashtirish bilan bog'liq Qarz oluvchining xarajatlari;

e) transport vositasining bozor qiymatining yo'qotilishi.

3.7. Sug'urtalovchi ushbu Shartnomada ko'rsatilmagan va/yoki tafsiflanmagan har qanday hodisalar uchun majburiyat olib bormaydi. Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda sug'urta tovonini to'lashdan ozod qilinadi.

4. SUG'URTA PULI, SUG'URTA QIYMATI VA SUG'URTA MUKOFOTI

4.1. Har bir Qarz oluvchi bo'yicha sug'urta summasi Bank tomonidan taqdim etilgan va muayyan Sug'urta polisining ajralmas qismi bo'lgan Ariza-ancketada ko'rsatilgan ma'lumotlar va axborotlar asosida belgilanadi.

4.2. Shartnomada barcha hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'mda amalga oshiriladi Sug'urta mukofoti Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi bilan kelishilgan miqdorda to'lanadi. Sug'urta mukofotining miqdori Sug'urta summasiga nisbatan yillik 0,4 foizdan kam 2 foizdan ko'p belgilanishi mumkin emas.

4.3. Kredit shartnomasi bo'yicha barcha majburiyatlar Qarz oluvchi tomonidan muddatidan oldin bajarilgan taqdirda, to'langan sug'urta mukofotining 50 (ellik) foizi miqdoridagi xarajatlarni chegirgan holda va sug'urta mukofotining qolgan summasidan muddati o'tmagan sug'urta davriga mutanosib ravishda qaytariladi. Bunda, agar ushbu Sug'urta polisi bo'yicha ilgari sug'urta tovoni to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lsa, to'langan sug'urta mukofoti qaytarilmaydi.

4.4. Har bir alohida sug'urta polisi bo'yicha sug'urta summasi Kredit shartnomasi bo'yicha kredit summasining 125 (bir yuz yigirma besh) foizidan ko'p bo'lmagan summani tashkil qiladi.

4.5. Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi Ariza-ancketani to'liq hajmda taqdim etgandan so'ng Sug'urta mukofoti 1 (bir) kun ichida to'lanishi kerak. Mablag'lar Sug'urtalovchining bank hisobvarag'iغا to'liq kelib tushgan kun sug'urta mukofoti to'langan kun hisoblanadi. Sug'urta shartnomasi Yagona tizimda ro'yxatdan o'tkazilganidan va sug'urta mukofoti to'langanligi sug'urtalovchi tomonidan elektron tarzda tasdiqlanganidan so'ng sug'urta polisi Yagona tizim orqali avtomatik tarzda rasmiylashtiriladi.

5. SHARTNOMANING AMAL QILISHI VA BEKOR BO'LISHI

5.1. Ushbu Shartnoma nomuayyan muddatga tuzilgan. Shartnoma Tomonlarning maxsus vakolatga ega bo'lgan shaxsleri imzolagan kundan kuchga kiradi. Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash bo'yicha javobgarligi sug'urta mukofoti (yoki uning birlinchi qismi) Sug'urtalovchi bank hisob raqamiga kelib tushgan sanadan keyingi kunning 00.00 soatidan e'tiboran kuchga kiradi.

5.2. Sug'urta Shartnoma/Polisi quyidagi hollarda tugatiladi:

5.2.1. Sug'urtalovchining javobgarlik muddati tugaganda;

5.2.2. Sug'urtalovchi tomonidan Shartnoma/Polis bo'yicha majburiyatlarning to'liq hajmda bajarilganda;

5.2.3. Shartnoma/Polis bekor qilingan (muddatidan ilgari tugatilgan) taqdirda:

a) Sug'urta qildiruvchining yozma arizasiga binoan;

b) Sug'urta qildiruvchi tomonidan Shartnoma/Polis bo'yicha majburiyatlarning bajarilmaganligi tufayli;

d) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi ko'zda tutilgan boshqa hollarda.

5.3. Sug'urta Shartnoma/Polisi Sug'urta qildiruvchi tomonidan muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda, sug'urta mukofoti sug'urta amal qilgan vaqtga mutanosib ravishda qolgan mablag'ni hamda Sug'urtalovchi tomonidan qilingan xarajatlarni uchun 50 (ellik) foizi chegirib qoligan holda Sug'urta qildiruvchiga qaytarib beriladi (agar sug'urta Polisining amal qilish vaqtida sug'urta tovoni to'lovi amalga oshirilgan bo'lsa, sug'urta mukofoti qaytarib berilmaydi).

5.5. Shartnoma/Polisni bekor qilish niyatları haqida agar boshqa holatlar ko'zda tutilmagan bo'lsa, Sug'urta qildiruvchi va Sug'urtalovchi bir-birlarini sug'urta Shartnoma/Polisi tugatilishi kutilayotgan sanadan kamida 15 (o'n besh) kalender kuni avval yozma ravishda ogohlantirishlari shart. Sug'urta Shartnoma/Polisi bildirishnomada Shartnoma/Polisning amal qilishi tugatiladigan kun sifatida ko'rsatilgan kunning 00.00 soatidan e'tiboran tugatilgan hisoblanadi.

5.6. Sug'urta Ariza-anketa rasmiylashtirilgan/tuzilgan vaqtidan e'tiboran, O'zbekiston Respublikasining amaldagi fuqarolik qonunchiligidagi ko'zda tutilgan asoslarda hamda quyida keltirilgan hollarda haqiqiy emas, deb topilishi mumkin:

- Ariza-ancketada ko'rsatilgan sug'urta mukofoti belgilangan vaqtida to'lanmasa;
- Ariza-anketa sug'urta hodisasi yuz berganidan keyin rasmiylashtirilgan/tuzilgan bo'lsa;
- Ariza-ancketada keltirilgan sug'urtalangan mol-mulk jinoiy yo'l bilan topilgan, xatlangan, hibsda yoki sud qarori asosida musodara etilgan bo'lsa;
- Sud Shartnoma/Polisni haqiqiy emas deb topish to'g'risida qaror qabul qilgan bo'lsa.

5.7. Sug'urta Shartnoma/Polisi haqiqiy emas deb topilgan bo'lsa, sug'urta mukofoti Sug'urta qildiruvchiga Sug'urtalovchi tomonidan ishni olib borishga ketgan xarajatlarni chegirib qoligan holda qaytariladi, Sug'urta qildiruvchi va/yoki Naf oluvchiga to'langan sug'urta tovoni esa, bir oy muddat ichida Sug'urtalovchiga to'liq hajmda qaytarilishi lozim.

6. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi quyidagilarga haqli:

6.1.1. ushbu shartnoma yoki berilgan sug'urta polisining amal qilish muddatini davomida sug'urta masalalari bo'yicha maslahatlar olish;

6.1.2. sug'urta tovonini olish huquqi yuzaga kelgan taqdirda, ushbu shartnomada va berilgan sug'urta polislarida (elektron sug'urta polislarida) nazarda tutilgan muddatlar va miqdordarda uni olishni talab qilish;

6.1.3. bir tomonlama tartibda mazkur shartnoma muddatidan oldin O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalariiga va ushbu shartnoma shartlariga muvofiq bekor qilish;

6.1.4. Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash rad etilganligi ustidan sudga shikoyat qilish;

6.1.5. Sug'urtalovchi bilan kelishgan holda ushbu shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.



6.2. Sug‘urta qildiruvchi/garovga qo‘yuvchining majburiyatları

6.2.1. ushbu shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda sug‘urta mukofotini to‘lash;

6.2.2. Sug‘urtalovchining so‘roviga binoan sug‘urta hodisasi sodir bo‘lgan fakt va holatlarni aniqlash uchun zarur bo‘lgan har qanday ma’lumotlarni taqdim etish;

6.2.3. sug‘urta hodisasi sodir bo‘lishini oldini olish bo‘yicha barcha choralarni ko‘rish;

6.3. Sug‘urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

6.3.1. Sug‘urta hodisasi yuz berishi ehtimolini kamaytirishga qaratilgan ogohlantiruvchi tadbirlarni o‘tkazish;

6.3.2. Sug‘urta qildiruvchi/garovga qo‘yuvchi tomonidan yetkazilgan moddiy zararni baholash bo‘yicha taqdim etilgan hisobdan norozi bo‘lgan taqdirda, qonunchilikda nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish;

6.3.3. agar ushbu Shartnomaning 7-bo‘limida ko‘rsatilgan hujjatlar taqdim etilmagan bo‘lsa, sug‘urta hodisasi yuz bergenligi va sug‘urta tovonini to‘lash to‘g‘risidagi arizani qabul qilishni rad etish;

6.4. Sug‘urtalovchi quyidagilarga majbur:

6.4.1. Sug‘urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Qarz oluvchiga mazkur Shartnoma bo‘yicha maslahatlar berish;

6.4.2. Mazkur Shartnoma belgilangan muddatlarda va tartibda sug‘urta polisini taqdim etish;

6.4.3. sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda, ushbu Shartnoma belgilangan tartibda va miqdorda Sug‘urta qildiruvchiga yoki Naf oluvchiga sug‘urta tovonini to‘lash;

6.4.4. Sug‘urta qildiruvchi/Naf oluvchi va /Qarz oluvchi haqida va ularning mulkiy holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor etmaslik, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

7-BO‘LIM. SUG‘URTA DA’VOSINI KO‘RIB CHIQISH VA SUG‘URTA TOVONINI TO‘LASH

7.1. Shartnomaning kredit qaytmaslik tavakkalchiligi bo‘yicha muayyan Qarz oluvchiga nisbatan yuzaga kelgan holatlarda, Sug‘urta qildiruvchi/Naf oluvchi bunday voqealar sodir bo‘lgan kundan boshlab 30 (o‘ttiz) kalendar kun ichida Sug‘urtalovchini yozma ravishda xabardor qilishi shuningdek, Sug‘urtalovchiga zararning fakti va miqdorini aniqlashga imkon beruvchi hujjatlarini taqdim etishi shart, shu jumladan:

a) muayyan Qarz oluvchiga berilgan sug‘urta polisining nusxasi;

b) Kredit shartnomasi va to‘lov grafigining nusxasi;

d) kredit berish uchun asos bo‘lgan hujjatlar nusxalari (qarz olish uchun taqdim etilgan ariza, kredit mablag‘laridan maqsadli foydalanilganligini tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari);

e) olingan kreditni to‘langan qismalari to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi nusxasi;

f) Kredit shartnomasi bo‘yicha to‘lov grafigiga muvofiq Qarz oluvchining hisobot oyining oxirgi sanasida kechiktirilgan to‘lov summasi miqdori to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi nusxasi (Kredit shartnomasi bo‘yicha batafsil yoritilgan holda asosiy qarzning qoldiq summasi va foizlar, neustoyka, penya, jarima,) Sug‘urtalovchi Sug‘urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Qarz oluvchidan, vakolatli organlar va tashkilotlardan sug‘urta hodisasi bilan bog‘liq qo‘sishma ma’lumot va hujjatlarini talab qilishga, shuningdek yetkazilgan zararning sabablari, holatlari va hajmini mustaqil ravishda aniqlashga haqli.

7.2. 3.1-bandning 3.1.1. kichik band a) qismida ko‘rsatilgan holat yuz berganda – asosiy qarz va foizlar bo‘yicha kechiktirilgan summa miqdorida, shuningdek, hisobot oyining oxirgi sanasida Kredit shartnomasi bo‘yicha to‘lov jadvaliga muvofiq muddati o‘tgan qarzdorlik uchun hisoblangan foizlar biroq har qanday holatda ham muddati o‘tkazib yuborilgan summadan oshmaydigan summada sug‘urta tovonini to‘laydi.

7.3. 3.1-bandning 3.1.1. kichik band b) va d) qismida ko‘rsatilgan holat yuz berganda – asosiy qarzning umumiyligi miqdorida, shuningdek, muddati o‘tkazib yuborilgan qarz uchun hisoblangan foizlar, kreditning asosiy summasi va foizlari bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik uchun hisoblangan foizlar, ammo har qanday holatda ham sug‘urta summasidan oshmaydigan miqdorda sug‘urta tovonini to‘laydi.

7.4. Mazkur shartnoma bo‘yicha transport vositasiga mazkur shartnoma keltirilgan voqealar sodir bo‘lgan hollarda Sug‘urtalovchiga nisbatan sug‘urta tovonini to‘lash to‘g‘risidagi da‘vo qilish uchun asos bo‘lishi mumkin, Qarz oluvchi yoki uning notarial tasdiqlangan vakili quyidagilarga majbur:

– voqealar haqida darhol vakolatli organlarga (yo‘l harakati xavfsizligi organlari, yong‘in xavfsizligi organlari, ichki ishlarni organlari va boshqalar) xabar berish;

– bu haqda Sug‘urtalovchini imkon qadar qisqa vaqt ichida, lekin 72 (yetmish ikki) soatdan kechiktirmay xabardor qilishi va voqealar sodir bo‘lgan kundan boshlab besh ish kuni ichida Sug‘urtalovchiga hodisaning sabablari va sharoitlari, hodisa sodir bo‘lgan joyini ko‘rsatgan holda yozma xabar yuborishi;

7.5. Sug‘urta tovonini to‘lash uchun arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi lozim:

a) sug‘urta polisining nusxasi;

b) haydovchilik guvohnomasining nusxasi va fuqarolik pasporti (Shaxs guvohnomasi-ID) nusxasi;

d) transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazilganlik guvohnomasining nusxasi;

e) transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi ishonchnoma yoki boshqa hujjatlar nusxalari;

f) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlar, shu jumladan vakolatli organlarning hujjatlarini, sud qarorlari, shuningdek sug‘urta hodisasi belgilariga ega bo‘lgan voqealar sodir bo‘lgan joy, vaqt va sharoitlarni aniqlash uchun Sug‘urtalovchi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar, sug‘urtalangan transport vositasiga yetkazilgan zararlar va (yoki) o‘g‘irlangan qismalari (detallari) ro‘yxati, voqealar ishtiropchilari va ularning aybdorlik darajasi.

Yo‘l transport hodisasi (YTH) yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan qayd etilganda yo‘l harakati xavfsizligi vakolatli davlat organi tomonidan berilgan YTH to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi va (yoki) sud qarori, unda voqealar joyi, vaqt va YTH ishtiropchilari, YTH ishtiropchilarining transport vositalariga yetkazilgan zararning ro‘yxati va xarakteri, YTH har bir ishtiropchilarining O‘zbekiston Respublikasi Yo‘l harakati qoidalarini

buzganligi yoki buzmaganligi to‘g‘risida:

- yong‘in/portlash sodir bo‘lganda – O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan berilgan yong‘in/portlash dalolatnomasi yoki ma‘lumotnomasi;
- tabiiy ofatlar sodir bo‘lganda – O‘zgidromet va/yoki O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan berilgan ma‘lumotnomasi (yoki boshqa hujjat);
- voqeal sodir bo‘lgan hududda voqeal joyi, voqeal sabablari, sanasi, ta‘mirlash va tiklash bo‘yicha zarar miqdori, agar tergov davomida aybdor aniqlangan bo‘lsa u haqidagi ma‘lumotlar, yot jismlarning qulashi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan Ichki ishlar organlari yoki tozalash va (yoki) tartibni saqlashni tashkil etish uchun mas‘ul bo‘lgan tashkilot (shu jumladan boshqaruv kompaniyasi, kommunal ta‘mirlash avariya xizmatlari) tomonidan berilgan dalolatnomasi (ma‘lumotnomasi).
- huquqni muhofaza qiluvchi organning (ichki ishlar organlari, prokuratura) jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qarori yoki jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish to‘g‘risidagi qarori - o‘g‘irlik (talonchilik), uchinchi shaxslarning g‘ayriqonuni harakatlari.

g) ehtiyyot qismlar va materiallar ro‘yxatini ko‘rsatgan holda baholash tashkiloti tomonidan tuzilgan moddiy zararni baholash bo‘yicha barcha ishlar xarajatlari smetasining nusxasi;

h) sug‘urta tovonini to‘lash masalasini hal qilish va Sug‘urtalovchi tomonidan talab qilingan zarar miqdorini aniqlash uchun boshqa zarur hujjatlar.

Sug‘urtalovchi sug‘urta hodisasi bilan bog‘liq qo‘srimcha ma‘lumot va hujjatlarni Sug‘urta qildiruvchidan/qarz oluvchidan, vakolatli organlar va tashkilotlardan talab qilishga, shuningdek yetkazilgan zararning sabablari, holatlari va hajmini mustaqil ravishda aniqlashga haqli.

7.6. Sug‘urta qildiruvchi sodir bo‘lgan har qanday yo‘qotishlar va (yoki) zararlar haqida xabar berganida, Sug‘urtalovchi o‘z xodimini yoki boshqa shaxsni da’voni ko‘rib chiqish va hodisaning turi, sabablari va sharoitlarini batafsil o‘rganish uchun yuborishga haqli.

7.7. Qarz oluvchi Sug‘urta qildiruvchi/Naf oluvchiga Sug‘urtalovchi tomonidan talab qilinadigan hujjatlarni o‘z vaqtida taqdim etishda yordam berishga majburdir.

7.8. Barcha zarur hujjatlarni olgandan va ushbu hodisa bilan bog‘liq barcha holatlarni o‘rganib chiqqandan so‘ng, Sug‘urtalovchi hodisani 5 (besh) kun ichida sug‘urta hodisasi deb tan olish yoki tan olmaslik to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

7.9. Sug‘urtalovchining sug‘urta tovonini to‘lashni rad etish yoki to‘lash to‘g‘risidagi qarori Sug‘urta qildiruvchiga uning sug‘urta tovonini to‘lash to‘g‘risidagi yozma arizasidan keyin 5 (besh) kundan kechiktirmagan holda xabardor qilishi va rad etgan taqdirda, rad etish sabablaring asoslab berishi kerak.

7.10. Mazkur shartnomada transport vositasiga yetkazilgan tavakkalchilik bo‘yicha nazarda tutilgan sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda, sug‘urta tovoni ushbu Qarz oluvchiga yoki Naf oluvchiga quyidagi shartlarni hisobga olgan holda to‘lanadi:

– Sug‘urtalangan transport vositasi o‘g‘irlangan yoki to‘liq yo‘qolgan taqdirda – ushbu Shartnoma bo‘yicha ilgari amalga oshirilgan barcha sug‘urta to‘lovlar (agar mavjud bo‘lsa) chegirib tashlangan sug‘urta summasi doirasida;

– Sug‘urtalangan transport vositasi shikastlanganda – baholash faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega baholovchi tashkilot tomonidan tuzilgan moddiy zararni baholash to‘g‘risidagi hisob-kitob/kalkulyatsiyasi asosida sug‘urta summasidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda.

7.11. Agar muayyan sug‘urta polisi bo‘yicha navbatdagi sug‘urta badali to‘langunga qadar (sug‘urta badali kechiktirilganda) sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda, Sug‘urtalovchi to‘lanishi lozim bo‘lgan sug‘urta to‘lovi miqdoridan unga to‘langan sug‘urta mukofoti va muddati o‘tgan sug‘urta mukofotini hisobga olgan holda mutanosib ravishda sug‘urta tovonini cheklashga haqli.

7.12. Mazkur Shartnoma bo‘yicha sug‘urta hodisasi e’tirof etilgan va sug‘urta hodisasi to‘g‘risidagi Qaror imzolangan kundan boshlab 10 (o‘n) kun ichida oluvchining bank hisobvarag‘iga pul mablag‘larini o‘tkazish yo‘li bilan sug‘urta tovoni amalga oshiriladi.

7.13. Sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganligi uchun aybdor shaxs tomonidan yetkazilgan zarar to‘liq qoplangan bo‘lsa Sug‘urtalovchi/Naf oluvchi yoki Qarz oluvchi sug‘urta tovonini olish huquqini yo‘qotadi.

7.14. agar Sug‘urta qildiruvchi muayyan sug‘urta polisi bo‘yicha amalga oshirilgan sug‘urta tovoni doirasida sug‘urta summasini tiklash uchun qo‘srimcha sug‘urta mukofotini to‘lamagan bo‘lsa, Sug‘urtalovchi sug‘urta summasini to‘langan sug‘urta tovoni miqdoriga mutanosib ravishda kamaytiradi.

7.15. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 936-moddasini hisobga olib, Sug‘urtalovchining sug‘urta tovonini to‘lash bo‘yicha majburiyatlari sug‘urta tovoni to‘langandan so‘ng kamaygan chegarasi doirasidan oshgan qismi navbatdagi sug‘urta tovonini to‘lashga asos bo‘lmaydi.

7.16. Muayyan sug‘urtalangan transport vositasiga yetkazilgan zararni qoplash uchun sug‘urta tovoni to‘langan taqdirda, Sug‘urtalovchi sug‘urtalangan transport vositasining shikastlangan qismlarini talab qilishga haqli.

7.17. Sug‘urtalangan transport vositasiga yoki uning shikastlangan qismlariga bo‘lgan mulk huquqi Sug‘urta tovoni to‘langan summa doirasida Sug‘urtalovchiga o‘tadi (O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 958-moddasi).

7.18. Sug‘urtalangan transport vositasining 80 foizi konstruktiv tarzda yo‘qolgan taqdirda, Sug‘urtalovchi sug‘urta tovonini to‘lagandan so‘ng, Qarz oluvchi Sug‘urtalovchining foydasiga transport vositasiga bo‘lgan huquqdan voz kechadi (Abandon).

8-BO‘LIM. SUBROGATSIYA

8.1. Mazkur Shartnomada kredit qaytmaslik tavakkalchiligi bo‘yicha nazarda tutilgan sug‘urta hodisasi natijasida Sug‘urta qildiruvchiga yetkazilgan zararni qoplash uchun sug‘urta tovonini to‘liq yoki qisman to‘lagan Sug‘urtalovchiga

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 957-moddasiga muvofiq, to'langan summa doirasida talab qilish huquqi Kredit shartnomasiga muvofiq qarzni to'lash majburiyatini olgan Qarz oluvchiga o'tadi.

8.2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 957-moddasiga muvofiq transport vositasiga mazkur Shartnomada nazarda tutilgan sug'urta hodisasi sodir bo'lganda sug'urtalangan transport vositasiga yetkazilgan zarar Sug'urtalovchi to'liq yoki qisman sug'urta tovonini to'lagan bo'lsa, to'langan summa doirasida zarar yetkazgan aybdor shaxsga da'vo qilish huquqi Sug'urtalovchiga o'tadi, bunda Qarz oluvchi yoki qonunchilikda belgilangan tartibda sug'urtalangan transport vositasini boshqarishga ruxsat berilgan shaxslar aybdor hisoblangan hollar bundan mustasno.

8.3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 957-moddasi talablari doirasida Sug'urtalovchining o'ziga berilgan da'vo huquqini amalgaga oshirishi uchun Sug'urta qildiruvchi va (yoki) qarz oluvchi Sug'urtalovchiga barcha zarur bo'lgan ma'lumotlarni hujjatlar va dalillarni topshirishlari shart.

8.4. Agar Qarz oluvchi yoki boshqa sug'urtalangan transport vositasini boshqarishga ruxsat etilgan shaxs Sug'urtalovchi tomonidan qoplangan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan talab qilish huquqidan voz kechsa yoki ularning aybi tufayli ushbu huquqdan foydalanish imkonsiz bo'lganda, Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'liq yoki tegishli qismi doirasida to'lashdan ozod qilinadi va to'langan sug'urta tovonini qaytarilishini talab qilishga haqli.

9. KORRUPSIYA VA JFODLTMVOQQTMGA QARSHI KURASHISH HAMDA BOSHQA SHARTLAR

9.1. Ushbu shartnomma bo'yicha tomonlar o'z majburiyatlarini bajarayotganda, afillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilaolri harakatlarga ta'sir qilishi yoki ushbu shaxslarning har qanday nomaqbul imtiyozlar yoki boshqa imtiyozlarni olish uchun to'lovlarni to'lamaydilar, to'lashni taklif qilmaydilar, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita biron bir pul mablag'lari yoki qiymatlarni to'lashga yo'l qo'ymaydilar.

9.2. Ushbu shartnomma bo'yicha tomonlar o'z majburiyatlarini bajarayotganda, afillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilari amalda qonunchilikda pora berish-olish, shuningdek, amaldagi qonunchilik va xalqaro huquq talablarini buzadigan harakatlarni amalgaga oshirmaydilar, jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha harakatlar qilmaydi.

9.3. Ushbu shartnomma taraflarning har biri boshqa tomonning xodimlarini har qanday tarzda rag'batlantirishni rad etadi, jumladan pul mablag'lari, sovg'alar, bepul ishlarni (xizmatlarni) bajarish va boshqalar taqilanganadi. Shu bilan birga, xodimni ma'lum bir qaramlikka olib kelishi va buning bajarilishini ta'minlash, xodim rag'batlantiruvchi tomon foydasiga har qanday harakatni amalgaga oshirishi ta'qilanganadi.

9.4. Agar biron-bir tomon korrupsiyaga qarshi kurash shartlarining buzilishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb bilsa, tegishli tomon boshqa tomonni yozma yoki og'zaki, shu jumladan, ishonch telefoni orqali xabardor qilish majburiyatini oladi.

9.5. Tomonlar shartnomma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnomma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar tomonlar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

9.6. O'z zimmalariga olgan majburiyatlarni bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

9.7. Sug'urta tovonini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga kechiktirilgan har bir kun uchun muddati o'tgan summaning 0,1 foizi miqdorida, lekin ushbu Shartnomma bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan summaning 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi. Penyalarni to'lash Sug'urtalovchini sug'urta tovonini to'lash majburiyatidan ozod etmaydi.

9.8. Sug'urtalovchiga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larni to'lash muddatlariga rioya etilmagan taqdirda, Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining talabiga ko'ra, kechiktirilgan har bir kun uchun 0,1 foiz miqdorida qarz summasiga penya to'laydi, lekin to'lanadigan summaning 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda to'laydi.

9.9. Agar ushbu Shartnomma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmasliklari bartaraf etib bo'lmas holatlari (fors-major) tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, tomonlar javobgarlikdan ozod qilinadi. Fors-major holatlari ta'sir qilgan tomon boshqa tomonni ushbu holatlarning yuzaga kelishi va mumkin bo'lgan davomiyligi to'g'risida darhol xabardor qilishi shart. Bunday holda, Tomonlar belgilangan tartibda mazkur Shartnomma bo'yicha majburiyatlarning bajarilgan va bajarilmagan qismlari bo'yicha yakuniy to'lojni amalgaga oshiradilar.

9.10. Tomonlar fors-major holatlari davrida ushbu Shartnomma bo'yicha o'z majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgar emaslar.

9.11. Fors-major holatlari quyidagilar kiradi: ijtimoiy-iqtisodiy harakatlar (harbiy harakatlar) natijasida yuzaga kelgan favqulodda, oldini olish mumkin bo'lmagan va kutilmagan holatlari; blokadalar, davlat tashkilotlari va davlatlар o'rtafiga chekllovchi va taqilovchi choralar, shuningdek hukumat qarorlari va boshqalar), agar bu holatlari Shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir qilgan bo'lsa).

9.12. Fors-major holatlari yuzaga kelganda, tomonlarning majburiyatlarini bajarish muddati fors-major holatlari davom etayotgan vaqtga mutanosib ravishda kechiktiriladi.

9.13. Ushbu Shartnomma shartlariga o'zgartirishlar kiritish tomonlarning kelishuvini bilan amalgaga oshiriladi. Ushbu Shartnomma shartlarini o'zgartirish to'g'risidagi kelishuv yozma ravishda tuziladi.

9.14. Ushbu shartnomma shartlari o'zgargan taqdirda, majburiyatlar ushbu shartnomani o'zgartirish to'g'risidagi yozma shartnomada ko'rsatilgan kundan boshlab o'zgartirilgan deb hisoblanadi.

9.15. Ushbu shartnomma bo'yicha huquq va majburiyatlarni uchinchi shaxslarga topshirishga tomonlarning yozma roziligidan yo'l qo'yilmaydi.

9.16. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan barcha holatlarda O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi, "Sug'urta faoliyati to'g'risida", "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunlar va O'zbekiston Respublikasida amaldagi boshqa qonun hujjatlariga amal qiladilar.

9.17. Sug'urtalovchi, Sug'urta qildiruvchi va Naf oluvchi maxfiylik uchun javobgardir va ushbu shartnoma, ilova va ushbu shartnoma bilan bog'liq boshqa hujjatlarning mazmunini tegishli tomonning yozma ruxsatisiz uchinchi tomonga oshkor qilmaydi.

9.18. Ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar muzokara yo'li bilan, kelishuvga erishilmagan taqdirda esa sud tartibida hal qilinadi.

9.19. Shartnoma tomonlari, shuningdek har bir tomonning vakillari yoki xodimlari ushbu shartnomaga tegishli bo'lgan firma yoki maxfiy ma'lumotlarni har bir tomonning oldindan yozma roziligidiz oshkor qilmaydi.


9.20. Mazkur Bosh shartnoma 2 (ikki) nusxada tuzilgan bo'lib, ular Sug'urtalovchida va Naf oluvchida bir nusxada saqlanadi va bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi hamda 2025-yil _____ sanadan kuchga kiradi.

10. TOMONLARNING REKVIZITLARI VA IMZOLARI

SUG'URTALOVCHI:
«MY INSURANCE» AJ

Toshkent sh., Kichik mirobod ko'ch., 95
tel: +71-205-19-19
h/r: 2020 8000 4047 8606 6066
ATB "Aloqabank"
МФО: 00401 STIR: 207002342,
ОКЭД: 65120

Sug'urtalovchi nomidan:
Bosh direktor
A. Yuldashev



NAF OLUVCHI:
AT «ALOQABANK»

Toshkent sh., Muminova ko'ch., 4/1
tel: +71-232-83-53
h/r: 2980200080000401113
ATB "Aloqabank"
МФО: 00401 STIR: 200829053,
ОКЭД: 64190

Naf oluvchi nomidan:
Boshqaruvi raisi
K. Irisbekova



юраси,

